

## AGAR SIZNI CHEFVSM IGA JOYLASHTIRISHSA, NIMA QILMOQ KERAK?

Agar sizni Центр временного содержания иностранных граждан ga joylashtirgan bo'lsalar, hujjatlaringizni tezroq tiklashga harakat qiling. Albatta mamlakatingizning konsulligi bilan bog'laning yoki jamoat tashkilotlariga bepul huquqiy yordam ko'rsatishni so'rab murojaat eting. Sizga Общественная наблюдательная комиссия (ОНК) yordam ko'rsatishi mumkin.

## QANDAY QILIB TIBBIY YORDAM OLISH MUMKIN?

Tez tibbiy yordam olish uchun uyali telefondan 103 yoki 112 raqamlariga qo'ng'iroq qiling. Hayotingiz va salomatligingiz uchun xavf tug'ilgan holatda, hatto sizda tibbiy polis va hujjatlar bo'lmagan taqdirda ham bepul tibbiy yordam ko'rsatishlari shart!

Har bir chet ellik fuqaro (bolalar ham) tibbiy sug'urta polisini rasmiylashtirishi zarur – ДМС yo OMC (mehnat shartnomasiga ko'ra ishlayotgan EOII fuqarolari uchun).

## AGAR TIBBIY YORDAM OLISHDA MUAMMO TUG'ILSA, NIMA QILMOQ KERAK?

Agar tibbiy yordam olishda muammolar yuzaga kelsa, siz Росздравнадзор: 8 (800) 550-99-03, 8 (812) 314-67-89 yo Комитет по здравоохранению Санкт-Петербурга: 8 (812) 635-55-64, 8 (812) 571-34-06, 8 (812) 635-55-63 ga murojaat qilishingiz mumkin

## BOLANI QANDAY QILIB BOLALAR BOG'CHASI YO MAKTABGA JOYLASHTIRISH MUMKIN?

Qonunga ko'ra maktab yoshidagi barcha bolalar maktabga borishlari shart va davlat bepul o'rta ta'limini olish huquqiga egadirlar. Bolalar bog'chasiga yoki maktabning birinchi sinfiga joylashtirish uchun registrasiyadan o'tilgan manzil bo'yicha ko'p vazifali markaz (KVM) ga murojaat eting. Birinchi bo'lmagan sinfga joylashtirish uchun registrasiyadan o'tilgan manzil bo'yicha maktabga murojaat eting. Agar sizga maktabda rad etishsa, rayon maorif bo'limiga murojaat eting, u erda rayoningizdagi maktablardan biridan joy ajratishlari shart.

## ROSSIYAGA MOSLASHIB KETISH UCHUN NIMA YORDAM BERADI?

Rossiyaga tezroq moslashib olish uchun, mahalliy aholi bilan ko'proq muloqotda bo'lish, do'stlar orttirish, bayramlarda qatnashish, kino, muzey, teatr, kutubxonalarga tez-tez borib turish, rus tilini o'rganishni maslahat beramiz.

Rus tilidagi bilim darajangizni sayt va ilovalar orqali oshiring, masalan: «Rossiya dlya vssex» (O'zbekcha), TORFL GO, pushkininstitute.ru «Образование на русском» portali. Rus tili, Rossiya tarixi va madaniyatiga oid mazkur saytlardan bilish mumkin: culture.ru и histrf.ru.

## BEPUL YORDAM VA MASLAHATNI QAERDA OLISH MUMKIN?

Yagona zudyordam tarmog'i – 112 (uy yo uyali telefondan) – hayot va salomatlik uchun xavfli bo'lgan favqulodda holat yuz berganda.

## Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге:

saytlar: gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/,

vk.com/spbmigrant

e-mail: info@kmormp.gov.spb.ru

tel.: 8 (812) 576-28-08.

Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni: 8 (812) 576-28-67

## СПБ ГКУ «Санкт-Петербургский Дом национальностей»:

saytlar: spbdn.ru,

vk.com/domnac\_spb

e-mail: domnac@yandex.ru

tel.: 8 (931) 326-58-29

Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni: 8 931 326-55-12

## «ПСП-фонд» хауриya jamg'armasi:

saytlar: migrussia.ru, vk.com/pspfond

tel.: 8 (953) 141-31-09, 8 (812) 337-57-85

## FOYDALI SAYTLAR

**migrantinfo.kmormp.gov.spb.ru** – Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге muhojirlar uchun internet-resursi

**migrussia.ru** – qonunchilikka va moslashishga oid maslahatlar, foydali muloqot vositalari va bir necha tildagi ma'lumotlar

## Санкт-Петербургского Дома национальностей uy axborot resurslari

Chet ellik fuqarolar uchun ishonch telefoni : 8 931 326-55-12



spbdn.ru



vk.com/domnac\_spb



t.me/spb\_dn

*Буклет «Добро пожаловать в Санкт-Петербург!  
Полезные советы в помощь мигранту» (на узбекском языке).  
Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»  
Авторы-составители: Гончарова Д.В., Якимов А.Н., Панич Б.Л.*

*Тираж 2000 экз.*

*Изготовлено по заказу СПБ ГКУ «СПб Дом национальностей»  
при поддержке Комитета по межнациональным отношениям  
и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге.*



Комитет по межнациональным  
отношениям и реализации  
миграционной политики  
в Санкт-Петербурге



# Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!

## Mehnat muhojirlariga ko'maklashuvchi foydali maslahatlar

Sankt-Peterburg  
2023

Sankt-Peterburgga xush kelibsiz! Siz mazkur kitobchada sizga zarur hujjatlarni rasmiylashtirishga, muhojirlik qonunchiligini buzmaslikka, qonuniy ish topishga, kundalik hayotingizni yaxshi o'tkazishga, zarur yordam va axborot olishga yordam beradigan foydali maslahatlarni topa olasiz.

### **O'ZINGIZ BILAN QAYSI HUJJATLAR BO'LMOG'I ZARUR?**

Tekshirish holatlarini nazarda tutib har doim ozingiz bilan pasport, muhojirlik kartasi, registrasiya, to'lov haqidagi cheki bilan ishlash uchun patent (EOII fuqarolaridan tashqari), amaldagi tibbiy polisni olib yuring. Ularning yo'qolishi mumkinligini ko'zda tutgan holda pasport, muhojirlik kartasi, registrasiya, patent, tibbiy polis, mehnat shartnomasining barcha sahifalari nusxasini tayyorlab oling.

### **HUJJATLARNI RASMIYLASHTIRISHDA NIMA YORDAM BERISHI MUMKIN?**

«Государственные услуги РФ» [gosuslugi.ru/foreign-citizen](http://gosuslugi.ru/foreign-citizen) portalida qayddan o'ting. «Госуслуг» yordami bilan masofaviy muhojirlik qaydini, tibbiy polisni rasmiylashtirish, Управление по вопросам миграции qabuliga yozilish va boshqa ko'p narsalarni qilish mumkin.

### **MUHOJIRLIK QAYDIGA QAYSI MANSILDA TURISH ZARUR?**

Muhojirlik qaydiga yashaydigan manzilingiz bo'yicha turishingiz muhimdir, aks holda sizni jarimaga tortishlari mumkin.

### **QONUNIY PATENTNI QANDAY VA QAERDA RASMIYLASHTIRISH MUMKIN?**

Sankt-Peterburgda qonuniy patentni faqat «Паспортно-визовом сервисе» МВД России va uning bolimlarida rasmiylashtirish mumkin: [pvsmdv.ru/branches/78](http://pvsmdv.ru/branches/78)

Ishlash uchun patentning tayyor bo'lgani va uning haqiqiyiligini [mvd.rf/сервисы-гвум](http://mvd.rf/сервисы-гвум) saytida bilish mumkin.

### **PATENT UCHUN TO'LOV QACHON TO'LANADI?**

Patent uchun to'lov har bir to'langan muddatning tugashiga 1 kun qolishiga kechiktirmasdan amalga oshiriladi. To'lovni ishlash uchun patent olingan sanadan 12 oyga oldingan amalga oshirish mumkin.

### **ISHNI QAERDAN IZLAZARUR?**

Ish izlash uchun rasmiy saytlardan foydalaning, masalan: «Rabota v Rossii» [trudvsem.ru](http://trudvsem.ru) yoki Sankt-Peterburg bo'sh ish orinlari [malumotnomasidan.r21.spb.ru](http://malumotnomasidan.r21.spb.ru)

Vositachilarga murojaat etmang – ular sizdan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin.

### **ISHGA JOYLASHISHDA NIMALARNI BILMOQ ZARUR?**

Yodda tuting, faqat patentingizda ko'rsatilgan ixtisos bo'yicha va belgilangan mintaqada ishlashingiz mumkin. Sankt-Peterburg va Leningrad viloyati – turli mihtaqaalar!

Ishlayotgan tashkilotingiz, uning qanday atalishi va manzilini, boshligingizning vazifasi, nasabi, nomi, uning telefon raqamini bilishingiz muhimdir. Bu ma'lumotlar huquqlaringizni himoya etishga to'g'ri kelib qolganda asqotib qolishi mumkin.

### **ISHDA QANDAY EHTIYOT CHORALARINI KO'RMOQ ZARUR?**

Faqat rasmiy yozma shartnomaga ko'ra ishlang, unda barcha ish sharoiti va mehnat haqi yozilgan bo'lmog'i shart, yo'qsa sizni aldashlari mumkin. Albatta ish beruvchi imzo chekkan mehnat shartnomasi nusxasini oling.

Pulni sizning nomingizga ochilgan maxsus bank kartasida yoki shaxsan buxgalteriyada hisob-kitob varaqasiga imzo chekib oling. Adar ishda sizdan qarz bo'lishsa, tilxat talab qiling.

Imzolayotgan har bir narsani diqqat bilan o'qing, ularning nusxasini berishni talab qiling. Agar imzolananayotgan hujjatlarga rozi bo'lmasangiz, imzo chekishdan bosh torting. Hujjatlarni tushunmasangiz, qo'l qo'ymang.

Hujjatlaringizni hech kimga saqlash uchun bermang: hech kimning hujjaatlaringizni olib qo'yishiga, harakat erkinligingizni cheklashiga, telefoningizni tortib olishiga va hokazolarga huquqi yo'q, bunday holatlarda politsiyaga murojaat eting!

### **ISH HAQINI KECHIKTIRISHSA, NIMA QILMOQ SARUR?**

Agar ish haqi berishni 15 kundan ortiq muddatga kechiktirishsa, siz ch.2 st.142 Трудового кодекса РФ ga muvofiq ish beruvchiga ish haqi to'lanmaganligi munosabati bilan yozma ariza berish huquqiga egasiz. Shuningdek, bunday holatda ish beruvchiga yozma ravishda shikoyat qilishingizni va Государственную инспекцию труда va Прокуратуру ga murojaat etishingizni maslahat beramiz.

### **JINOYAT YUZ BERGANDA NIMA QILMOQ KERAK?**

Agar siz jinoyat guvohi yoki qurboni bo'lsangiz, politsiyaga murojaat eting: shaxsan yoki 102 yo 112 raqamlari orqali (uyali telefondan), sayt : [78.mvd.rf](http://78.mvd.rf)

Agar siz ekstremizm yo terrorchilik ko'rinishlariga duch kelsangiz, bu haqda ФСБ России ga xabar bering:

<http://www.fsb.ru/fsb/webreception.htm> - ФСБ России ning electron qabuli, +7 (495) 224-22-22, 8 (800) 224-22-22 – ФСБ России ning ishonch telefoni.

### **AGAR POLITSIYA HUJJATLARNI TEKSHIRISH UCHUN TO'XTATSA, NIMALARNI BILMOQ MUHIMDIR**

Politsiya xodimlari hujjat tekshirish paytida xizmat vazifalarini bajarish asnosida bo'lishlari, politsiya kiyimida bo'lmoqlari zarur va ularda maxsus ko'krak nishoni (jeton) bo'lishi kerak– uning raqamini eslab oling yo yozib oling, shuningdek xizmat shahodatnomasini ko'rsatishni so'rang va u bilan tanishing.

Agar politsiya xodimlari ma'lumotlar bazasi bo'yicha hujjat tekshirish uchun eng yaqin politsiya nuqtasiga borishni so'rashsa, qarindoshlaringiz yoki do'stlaringizga qo'ngiroq qilib, qaerda turganingiz va kim bilan gaplashayotganingizni xabar qilishingizni maslahat beramiz. Sizga nimalar bo'layotganini kimdir bilishi muhimdir.

Yodda tuting: pora berish jinoyat sanaladi. Politsiyachilarga pul bermang!

### **AGAR SIZNI POLITSIYA USHLAGAN BO'LSA, NIMA QILMOQ KERAK?**

Agar sizni tutishsa, siz qo'ng'iroq qilish huquqiga egasiz, himoyachi, agar rus tilini yomoh bilsangiz, tarjimon talab qilishingiz mumkin.

Albatta tutilganlik yoki ma'muriy huquqbuzarlikka oid protocol nusxasini berishni so'rang.

Agar siz protocol mazmuniga rozi bo'lmasangiz, yozing: «Протоколга rozi emasman» va negaligini ko'rsating. Adar siz protokolda yozilganni tushunmasangiz, yozing: «Rus tilidagi matnni tushunmayman».

Politsiya xodimlarining jarima to'lash yo boshqa to'lov uchun hujjatlaringizni olib qo'yishga huquqlari yo'q – bu noqonuniy. Jarima faqat sud yo muhojirlik masalalari boyicha bo'lim boshlig'i tomonidan chiqarilishi mumkin. Ishingiz sudda ko'rilyotganda albatta qatnashing va qarorni qo'lingizga oling. Siz uning ustidan 10 kunlik muddatda shikoyat qilishingiz yo 30 kun davomida jarimani to'lashingiz mumkin.

Agar politsiya xodimlari sizning huquqlaringizni buzishsa, ariza qabul qilishni rad etishsa, o'z vazifalarini bajarishmasa, pora talab qilishsa yo zo'rvonlik ishlatishsa, siz 112 yo 02 raqamlariga yoki «Горячую линию» МВД РФ: 8 (800) 222-74-47, “Телефон доверия” ГУ МВД по г. Санкт-Петербургу и Ленинградской области: 8 (812) 573-21-81 ga qo'ng'iroq qilib, yordam so'rab murojaat etishingiz mumkin.

Agar sizni noqonuniy tutgan bo'lishsa yoki politsiyada noqonuniy ushlab turishsa Общественную наблюдательную комиссию (ОНК) [onkspb.ru](http://onkspb.ru). ga murojaat eting.